

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI

“MOLIYA” KAFEDRASI

MIRZAEV ATXAM XAYRULLAEVICH

**«BUDJET JARAYONI BOSQICHLARI VA UNI TASHKIL
ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI»**

5230600 -“Moliya”- ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun
yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Moliya» kafedrası mudiri

_____ i.f.n., dots. O.Komolov

«____» _____ 2015 y.

Ilmiy rahbar: _____ k.o‘q.Abdullaev A.

TOSHKENT - 2015

MUNDARIJA:

	betlar
Kirish	3
 I BOB. BYUDJET JARAYONI BOSQICHLARI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-HUQUQIY VA TASHKILIY ASOSLARI.....	 5
1.1. Byudjet jarayonini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari.....	5
1.2. Byudjet jarayonini tashkil etishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining asosiy vazifalari.....	11
I bob bo'yicha xulosa.....	21
 II BOB. BYUDJET JARAYONINI TASHKIL QILISH VA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINING AMALDAGI HOLATI.....	 23
2.1. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish va ularni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlashning holati.....	23
2.2. Byudjet jarayonini amalga oshirishda byudjet majburiyatlari taqsimlanish mexanizmining tahlili.....	30
II bob bo'yicha xulosa.....	40
 III BOB. G'AZNACHILIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI BYUDJET JARAYONIDA MOLIYA VAZIRLIGINING AHAMIYATINI OSHIRISH MASALALARI.....	 41
III bob bo'yicha xulosa.....	48
 Xulosa	 50
 Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	 53

Kirish

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Bizga ma'lumki, o'tgan yillar mobaynida olib borilgan iqtisodiy islohotlar mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligi qay darajada ekanligini ko'rsatib berdi. Bu borada, davlat moliyasi tizimining puxta ishlab chiqilganligi o'z natijalarini berdi. Xususan, muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov "O'tgan yili soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga, daromad solig'i stavkasi esa 9 foizdan 8 foizga kamaytirilgan bo'lsa-da, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profitsit bilan bajarildi"¹ – deya ta'kidlab o'tdilar. Ayniqsa, o'tgan yillar mobaynida mamlakatimizda zamonaviy Davlat byudjetining barpo etilganligi, byudjet tizimi faoliyatini ta'minlashda byudjet loyihasini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijro etilishini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinishiga tegishli bo'lgan davlat hokimiyat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda byudjet jarayoni ishtirokchilarining faoliyati samarali tashkil qilinganligi byudjet jarayoni munosabatlari ta'minlab berdi. Biroq, byudjet jarayonini tashkil qilishda ko'zga ko'rinarli natijalarga erishgan bo'lsada, shu bilan birga byudjet jarayonini tashkil qilishda ayrim muammolar ham mavjud. Mavjud muammolarni echimini topish, byudjet jarayonini tashkil qilishda ishtirok etuvchi organlar faoliyatini yanada takomillashtirish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining byudjet jarayoni ijrosida o'rnini o'rgangan holda, Moliya vazirligi faoliyatini yanada samaradorligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb mavzusi hisoblanadi. Shu bois, byudjet jarayonini tashkil etishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining o'rnini va ahamiyatini oshirish mavzuning dolzarbligini o'zida aks ettiradi.

¹ Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish — ustuvor vazifamizdir. T.: O'zbekiston. 2015. 4-bet.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishning maqsadi bo'lib, mamlakatni modernizatsiya qilish jarayonida byudjet jarayonini tashkil etishda davlat vakolatli organlari faoliyatini, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ahamiyatini oshirish yuzasidan xulosa hamda tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, **bitiruv malakaviy ishida quyidagi vazifalar belgilangan:**

- byudjet jarayonini tashkil qilishning nazariy-huquqiy asoslarini o'rganish;
- byudjet jarayonini tashkil etishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining asosiy vazifalarini ko'rib chiqish;
- byudjet jarayonini bosqichlari amaliyoti tahlilini o'rganish;
- byudjet jarayonini amalga oshirishda Moliya vazirligi faoliyatini tahlil qilish;
- byudjet jarayonini tashkil qilishda Moliya vazirligining ahamiyatini oshirish yo'llarini ko'rib chiqish va hokazo.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti bo'lib, byudjet jarayoni hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisoblanadi.

Bitiruv-malakaviy ishining predmeti. O'zbekiston Respublikasida byudjet jarayonini tashkil qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi byudjet jarayoni ishtirokida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Bitiruv-malakaviy ishining nazariy-amaliy ahamiyati bo'lib, ishda byudjet jarayoni nazariy jihatdan ochib berilganligi va amaliy jarayoni yoritilganligi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Ushbu bitiruv-malakaviy ishi o'z ichiga kirish, 3 ta bob, xulosa, hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatini qamrab olgan.

I BOB. BYUDJET JARAYONI BOSQICHLARI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-HUQUQIY VA TASHKILIIY ASOSLARI

1.1.Byudjet jarayonini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari

Mamlakatimizda davlat moliyasini tashkil etish va sog'lomlashtirish, byudjet daromadlarining barqarorligini, ularni shakllantirish manbalari mukammal nisbatini va butligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan byudjet siyosati tizimidagi islohotlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat miqyosida dasturlarning qabul qilinishi o'z ijobiy natijalarini bermoqda. Jumladan, 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturining o'z vaqtida qabul qilinishi xususida Prezidentimiz Islom Karimov: "Dastur o'ziga qamrab olgan, o'z vaqtida qabul qilingan hujjatlarda avvalo mamlakatimiz moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalariga yordam ko'rsatish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning puxta ishlab chiqilgani o'zining amaliy samarasini berdi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz²" - deya ta'kidlab o'tgan edilar.


Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mamlakatimiz miqyosida byudjet jarayonini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Avvalambor, byudjet jarayoniga ta'rif beradigan bo'lsak, "Byudjet jarayoni — Davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni.³ Byudjet jarayonining mazmuni mamlakatning davlat

² Prezident I.A.Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" nomli ma'ruzasi. 2010 yil 29 yanvar

³ O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son. 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y. №52-I-son.

va byudjet tuzilishi, tegishli organlar va yuridik shaxslarning byudjet huquqlari bilan belgilanadi hamda byudjet jarayonining mazmunini belgilashda byudjetni tuzish tartibi, uning normativ-huquqiy va tashkiliy asosi, mamlakat byudjetini tuzishning nazariy va metodologik masalalari muhim rol o'ynaydi.

1-rasm. Byudjet jarayoni bosqichlari⁴



Byudjet jarayoni, odatda, byudjet faoliyatining quyidagi to'rt bosqichini o'z ichiga oladi: (1-rasm).

- byudjet loyihasini tuzish (ishlab chiqish, yaratish);
- byudjetni ko'rib chiqish (muhokama qilish) va tasdiqlash;
- byudjetni ijro etish;
- byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.

Byudjet jarayonining davomiyligi yuqoridagi to'rt bosqichning barchasidan iborat bo'lib, odatda, uch yilga yaqin davom etadi. Buning bir yilga yaqini

⁴Malikov T.S., Haydarov N.H. Byudjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma / - T.: "IQTISOD MOLIIYa", 2008, 84 b.

byudjet loyihasini ishlab chiqish (yaratish, tuzish), uni muhokama qilish (ko'rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish)ga, bir kalendar yili (1 yanvardan 31 dekabrgacha) byudjetni ijro etishga (byudjet davri) va sakkiz oyga yaqini byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlashga va uni tasdiqlashga to'g'ri keladi.

Byudjet jarayonini tashkil etishda quyidagi printsiplarga rioya qilinadi:

1. Yagonalik printsiipi – bu erda yagona huquqiy baza, yagona byudjet klassifikatsiyasi, mamlakat konsolidatsiyalashtirilgan byudjetini tuzishda zarur bo'ladigan statistik va byudjet ma'lumotlari uchun byudjet hujjatlari shakllarining yagonaligi va pul tizimining yagonaligi orqali ifodalanadi.


2. Mustaqillik printsiipi – byudjet jarayonini amalga oshirishning uning har bir ishtirokchisi uchun mustaqil bo'lganligi bilan belgilanadi. Unga muvofiq, bu jarayonning ishtirokchilari daromadlarning o'z va tartibga soluvchi manbalari hamda ulardan foydalanishning yo'nalishlarini mustaqil ravishda aniqlash huquqiga egadirlar.

3. Balans metodi printsiipi – bu erda byudjet daromadlari va xarajatlari o'rtasida to'g'ri nisbatlarni o'rnatishda gavdalanadi. Unga rioya qilinishi byudjetning barqarorligini va xo'jalik sohalari o'rtasida mablag'larni taqsimlashda zaruriy proportsiyalarni ta'minlashi kerak. Bu metodning muhim sharti byudjet xarajatlarining daromadlariga muvofiqligi va moliyaviy rezervlarni yaratishdir. Bu printsiip moliyaviy siyosatning bosh maqsadi hisoblanadi.

Byudjet jarayonining Byudjet loyihasini tuzish (yaratish, ishlab chiqish) bosqichida quyidagilar amalga oshiriladi

- byudjetning hajmi;
- navbatdagi (kelgusi) yil uchun soliq va pul-kredit siyosati;
- byudjet mablag'laridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari va byudjet defitsitini qoplash metodlari;
- byudjet tizimining bo'g'inlari o'rtasida daromadlarni taqsimlash.

2-rasm. Byudjet jarayonini tashkil etishda rioya qilinishi lozim bo'lgan printsiplar⁵



Byudjet loyihasini tuzish (yaratish, ishlab chiqish)da mamlakatning istiqboldagi iqtisodiy rivojlanishi, inflyatsiya darajasiga, aholining bandlik darajasi, sotsial qo'llab-quvvatlashdan foydalanayotgan aholi soni hisobga olinadi.

Byudjetni muhokama qilish (ko'rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish) bosqichida mamlakatning oliy ijroiya organi – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ma'qullanganidan so'ng Davlat byudjetining loyihasi muhokama qilish (ko'rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish) uchun qonunchilik organi bo'lgan Oliy Majlisga taqdim etiladi. Odatda, byudjetning loyihasi Oliy Majlisning har bir palatasida (oldin quyi palata bo'lgan Qonunchilik palatasida va yuqori palata sanalgan Senatda) alohida-alohida muhokama qilinadi.

Mamlakat parlamentining har bir palatasida aniq byudjet masalalari bilan shug'ullanuvchi maxsus qo'mitalar va komissiyalar faoliyat ko'rsatadi. Ular byudjet loyihasining tegishli moddalarini atroflicha tahlil qiladilar, zaruriy hollarda o'zgartirishlarni taklif qiladilar va tushuntiruv xati bilan birgalikda byudjetning loyihasiga xulosa beradilar.

Oliy Majlisning har bir palatalarida byudjet loyihasi qabul qilinganidan so'ng, har ikki palata o'rtasida byudjet loyihasi bo'yicha kelishmovchiliklar mavjud bo'lmasa, mamlakat parlamentining byudjet to'g'risidagi umumiy qarori

⁵ Malikov T.S., Haydarov N.H. Byudjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma / - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008, 84 b.

qabul qilinadi. Agar palatalar o'rtasida byudjet loyihasi bo'yicha kelishmovchiliklar vujudga kelsa, har ikki palataning vakil-laridan iborat bo'lgan muvofiqlashtiruvchi komissiya ularni bartaraf etishi kerak.

Parlamentda byudjet loyihasini muhokama etish (ko'rib chiqish)da byudjet tashabbuskorligining mavjudligi muhim ahamiyatga egadir. Byudjet tashabbuskorligi deyilganda parlament a'zolarining hukumat tomonidan taqdim etilgan byudjet loyihasiga nisbatan o'zgartirishlar kiritish huquqi nazarda tutiladi

Byudjetni ijro etish bosqichida byudjetni ijro etish uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tasdiqlagandan va mamlakat Prezidenti imzolagandan so'ng boshlanadi. O'zbekiston hukumati quyi ijroiya organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari bilan muvofiqlashtirilgan holda byudjet ijrosi tartibini tashkil qiladi. Byudjet jarayonining bu bosqichi o'z ichiga byudjetning daromadlar va xarajatlar qismining bajarilishini qamrab oladi.

Byudjetni ijro etishning eng muhim vazifasi ikkiyoqlama xarakterga ega bo'lib, u bir tomondan, soliqlar va boshqa to'lovlarning yoppasiga hamda har bir manbalar bo'yicha to'liq va o'z vaqtida tushib turishini ta'minlashni, ikkinchi tomondan esa, byudjet tasdiqlangan yil uchun shu moliyaviy yil davomida byudjetda tasdiqlangan summalar chegarasida barcha tadbirlarni moliyalashtirilishni taqozo etadi.

Byudjet ijrosi davomida davlat ishlab chiqarishni intensivlashtirish va samaradorligini oshirish hisobidan resurslarning oshishidan, mablag'larni sarflashda iqtisod rejimiga rioya qilinishidan, solikli daromadlarning to'liq jalb qilinishidan manfaatdordir.

Davlat byudjetining ijrosini ta'minlashda quyidagi masalalarning hal etilishiga jiddiy e'tibor bermoq lozim:

- Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish;
- Davlat byudjeti mablag'larini sarflash;
- Qabul qilingan Davlat byudjeti bo'lmagan taqdirda byudjetni ijro etish;
- Byudjetdan ajratiladigan mablag'larga o'zgartirishlar kiritish;
- Davlat byudjetini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish;

- Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish;
- Davlat byudjetining kassa ijrosini ta'minlash;
- Davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish.

Davlat byudjetining ijrosini ta'minlash jarayonida uning daromadlarini shakllantirish O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni, Soliq kodeksi, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda hisoblab chiqarilgan, biroq joriy yilning 31 dekabrigacha Davlat byudjetiga to'lanmagan daromadlar kelgusi yilda Davlat byudjetiga o'tkazilishi kerak.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Davlat byudjeti moliya yili boshlanganidan keyin qabul qilingan holda xarajatlarning umumiy summasi moliya yili davomida qabul qilingan Davlat byudjeti ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirilishi kerak.

Byudjet jarayonining so'nggi bosqichi, ya'ni byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobot va uni tasdiqlashda davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot byudjet ijrosining yakuni (natijalari)ni o'zida ifoda etadi. Shu munosabat bilan Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar byudjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shu vazirlik belgilagan muddatlarda taqdim etishi kerak. Shunga mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan hamda mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar byudjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni tegishli moliya organlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan muddatlarda taqdim etmoqlari lozim.

Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Shunga mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va tegishli mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan ko'rib chiqiladi va

tasdiqlanadi.

1.2. Byudjet jarayonini tashkil etishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining asosiy vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi byudjet jarayonini tashkil etish va byudjet jarayonining to'rt bosqichida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Byudjet loyihasini tuzish (yaratish, ishlab chiqish)dan oldin O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda kelgusi moliya yiliga:

- tegishli byudjetlar va davlat maqsadli fondlarini tayyorlash uchun – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Tashkent shahri hokimliklari, davlat maqsadli fondlarini taqsimlovchi organlarga;

- byudjetdan ajratiladigan mablag'larni olishga buyurtmalar tuzish uchun – respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilarga byudjet so'rovi yuborishi kerak.

O'z navbatida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Tashkent shahri hokimliklari, davlat maqsadli fondlarini taqsimlovchi organlar byudjet so'rovi olinganidan keyin uch kunlik muddat ichida tegishli byudjetlar loyihalarini tuzish (ishlab chiqish, yaratish), ushbu loyihalarni tayyorlash tartibini va muddatlarini belgilash yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilmog'i zarur.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri moliya boshqarmalari yuqorida ko'rsatilgan qarorlar qabul qilinganidan so'ng uch kun muddat ichida:

- tegishli byudjetlar loyihalarini tayyorlash uchun – tuman va shahar hokimliklariga;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan byudjet mablag'lari olishga buyurtmalar tuzish uchun - Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetlaridan

moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilarga byudjet so'rovlari yuborishi kerak.

Yuqoridagilarga mos ravishda viloyatga bo'ysunadigan shaharlarning, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar tarkibiga kiruvchi tumanlarning hamda shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlarning hokimliklari byudjet so'rovi olinganidan keyin uch kun muddat ichida tegishli byudjetlar loyihalarini tuzish, bu loyihalarni tayyorlash tartibi va muddatlarini belgilash yuzasidan tegishli qarorlarni qabul qilmog'i lozim. O'z navbatida, tuman va shahar hokimliklarining moliya organlari yuqoridagi qarorlar qabul qilinganidan keyin uch kun muddat ichida tumanlar va shaharlarning byudjetlaridan byudjet mablag'larini olish uchun asoslangan buyurtmalar tuzish uchun shu tuman va shahar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'larini oluvchilarga byudjet so'rovlarini yuborishlari kerak.

Byudjet loyihasini tayyorlash muddatlari har bir mamlakatning amaldagi qonunchiligida o'z aksini topadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi" byudjet loyihasini tayyorlashning quyidagi muddatlarini belgilaydi:

a) kelgusi moliya yiliga byudjetdan ajratiladigan mablag'lar olishga buyurtmalar:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan – joriy yilning 1 iyunidan kechikmay tegishli moliya organlariga;

- respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan – joriy yilning 1 iyulidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etilishi kerak.

b) kelgusi moliya yiliga tegishli byudjetlar loyihalari:

- tumanlar va shaharlar hokimliklari moliya organlari tomonidan – mahalliy hokimiyat vakillik organlari belgilagan tartibda va muddatlarda, biroq joriy yilning 25 iyunidan kechiktirmasdan yuqori moliya organlariga;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent

shahar hokimliklari, davlat maqsadli fondlarini taqsimlovchi organlar tomonidan – O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda, biroq joriy yilning 1 iyulidan kechiktirmasdan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etilmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralar Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari daromadlarining prognozi bo'yicha takliflarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga joriy yilning 15 iyunigacha taqdim etadi.


Kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat byudjetining loyihasini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tayyorlab, joriy yilning 15 sentyabrigacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjeti loyihasini byudjet mablag'lari oluvchilar taqdim etgan buyurtmalarga va davlat byudjetining tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar loyihalariga muvofiq tayyorlaydi.

Shu bilan birga bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi vakil qilingan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, shuningdek tegishli tashkilotlar bilan birgalikda byudjetnomani loyihasini ishlab chiqishi va 15 sentyabrigacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritishi kerak. O'z navbatida byudjetnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yilning 15 oktyabridan kechiktirilmasdan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga kiritilishi kerak. Byudjet loyihasini tayyorlash jarayonini 3-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligini byudjetni muhokama qilish va tasdiqlash jarayonida davlat byudjeti qabul qilingandan so'ng uning mablag'lari byudjet mablag'lari oluvchilarga o'rnatilgan tartibga muvofiq ravishda etkazilishi kerak. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi: Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri

3-rasm. Byudjet loyihasini tayyorlash jarayoni⁶



hokimliklari e'tiboriga Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetlari daromadlari va xarajatlari miqdorlarini, shuningdek kelgusi moliya yili uchun ularga respublika byudjetidan ajratiladigan byudjet dotatsiyalari va byudjet subventsiyalari miqdorini va byudjetga oid boshqa ko'rsatkichlarni – Davlat byudjeti qabul qilinganidan keyin bir haftalik muddat ichida;

Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar, shuningdek Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar e'tiboriga ular uchun belgilangan daromadlar va xarajatlar miqdorini – Davlat byudjeti qabul

⁶ O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi" asosida tayyorlandi

qilinganidan keyin 10 kunlik muddat ichida etkazmog'i lozim.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar qabul qilinganidan keyin tegishli moliya organlari bir haftalik muddat ichida:

Davlat soliq xizmatining tegishli mahalliy organlari e'tiboriga – Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlarining tasdiqlangan miqdorini;

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan tashkilotlar e'tiboriga – ular uchun belgilangan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar miqdorlarini etkazishi kerak.

Byudjet ijrosiga oid bevosita ishlar Moliya vazirligi va uning tegishli bo'linmalari hamda organlari, Davlat soliq qo'mitasi hamda Davlat bojxona qo'mitasi va ularning joylardagi organlari tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, bu jarayonda Moliya vazirligining muhim tarkibiy tuzilmalaridan biri bo'lgan Davlat g'aznachilik tizimi va uning quyi organlari alohida rol o'ynaydi

Davlat g'aznachilik tizimi byudjet ijrosi bo'yicha quyidagilarni amalga oshiradi:

- byudjet daromadlarining tushishini qayd etish;

- byudjet majburiyatlarini, ya'ni byudjet to'g'risidagi qonunga muvofiq ravishda vujudga keladigan ma'lum muddat davomida xarajatlarni sarflash majburiyatini qabul qilish muddatlari va hajmlarini tartibga solish;

- ajratilgan byudjet majburiyatlari limiti doirasida xarajatlarni amalga oshirish huquqiga ruxsat yozuvlarini sodir etish;

- byudjetdan mablag' oluvchilar nomidan to'lovlarni amalga oshirish;

- boshqa funktsiyalar.

Byudjet ijrosi davomida barcha operatsiyalar va byudjetning mablag'lari G'aznachilikning balans hisob varaqlarida aks ettiriladi. Bu hisob varaqlari Markaziy bank va kredit tashkilotlarida joylashgandir. G'aznachilik tizimi byudjet mablag'lariga nisbatan kassaning yagonaligi printsiptini ta'minlaydi. Bu printsip barcha kelib tushuvchi daromadlar va byudjet defitsitini

moliyalashtirish manbalaridan tushumlarni hamda ko'zda tutilgan barcha xarajatlarni amalga oshirishni byudjetning yagona hisob varag'idan amalga oshirilishini taqozo etadi. Mamlakat byudjet tizimi barcha darajalarining byudjetlari kassaning yagonaligi printsipli asosida ijro etishi kerak.

Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan yoki mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan tashkilotlar bo'yicha – tegishli moliya organlari tomonidan sarflanadi.

Tayinlash sertifikatlarini tayyorlash, rasmiylashtirish, berish, ijro etish va hisobga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Davlat byudjetida ko'rsatib o'tilgan byudjet mablag'lari oluvchilar uchun – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan;

Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar uchun – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar uchun – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kелиshilgan tegishli moliya organlarining taqdimnomasiga binoan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimlar tomonidan (kapital quyilmalar moddalarini bundan mustasno);

2) tasdiqlangan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmi-ning 10% dan ortig'i:

Respublika byudjetidan ajratiladigan byudjet mablag'lariga – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan ajratiladigan byudjet mablag'lariga – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi belgilagan tartibda tegishli moliya organlari tomonidan kiritiladi.

Davlat byudjeti qabul qilinganidan keyin moliya yili davomida Davlat byudjetidan olingan byudjet mablag'larini ko'paytirish (kamaytirish) to'g'risida qaror qabul qilinadigan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri moliya organlari tomonidan tegishli darajadagi byudjetlar hajmiga o'zgarishlar kiritilishi mumkin. Xarajatlarni ko'paytirish yoki ularni qis-qartirish byudjetlar o'rtasida o'zaro hisob-kitob qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. O'z navbatida, byudjetlar o'rtasida o'zaro hisob-kitob o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.


Byudjet ijrosini ta'minlashda Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari Davlat byudjeti va uning tuzilmasiga kiruvchi byudjetlarning qonun hujjatlarida belgilangan ko'rsatkichlar doirasida bajarilishi uchun javobgardir. Shuning uchun ham Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini boshqarish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Turli darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi vaqtinchalik tafovutni to'g'rilash maqsadida moliya yili davomida ularga tegishli byudjetlardan byudjet ssudalari ajratilishi mumkin. Byudjet ssudalarini berishning eng kech muddati va tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi. Shuningdek, turli darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi vaqtinchalik farqni moliya yili davomida aylanma kassa mablag'i me'yori hisobiga uni moliya yili oxirigacha tasdiqlangan hajmga qadar tiklagan holda, byudjet mablag'larining foydalanilmagan qoldiqlari hisobiga va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlatning qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarini chiqarish hisobiga ham qoplash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari Davlat byudjeti ijrosining nazorat qilinishini amalga oshirish davomida:

- turli darajadagi byudjetlar ijrosi yakunlarini ko'rib chiqadi;

4-rasm. Davlat byudjeti ijrosining nazorat qilinishini amalga oshirish⁷



-turli darajadagi byudjetlarga mablag'lar tushumi to'g'risida soliq va bojxona organlaridan, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi

⁷ Malikov T.S., Haydarov N.H. Byudjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma / - T.: "IQTISOD MOLIIYa", 2008, 84 b.

organlardan axborot oladi;

-byudjet mablag'lari oluvchilardan byudjetdan ajratiladigan mablag'larning tushumi va sarfi to'g'risida ma'lumotlar talab qilib oladi;

-qonun hujjatlariga muvofiq banklardan byudjet mablag'lari harakati to'g'risida ma'lumotlar oladi;

-byudjet mablag'lari oluvchilarning moliya-xo'jalik faoliyatini o'z vakolatlari doirasida taftish qiladi va tekshiruvdan o'tkazadi (4-rasm).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yilning har choragida Davlat byudjeti ijrosining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi taqdim etadigan yakunlarini ko'rib chiqadi.

Byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobot va uni tasdiqlash jarayonida Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar byudjetidan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shu vazirlik belgilagan muddatlarda taqdim etishi kerak. Shunga mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan hamda mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilar byudjetdan ajratiladigan mablag'lardan hisobot davrida foydalanganlik to'g'risidagi hisobotlarni tegishli moliya organlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan muddatlarda taqdim etmoqlari lozim.


Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri moliya organlari tegishli byudjetlarning hisobot davridagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga va tegishli hokimliklarga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shu vazirlik belgilagan muddatlarda taqdim etmog'i lozim.

Davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar hisobot davrida davlat maqsadli jamg'armalariga mablag'lar tushumi va ulardan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga shu vazirlik belgilagan muddatlarda taqdim etishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 mayidan kechiktirmay taqdim etishi kerak. O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga hisobot yilidan keyingi yilning 15 mayidan kechiktirmay taqdim etishi kerak.

5-rasmda byudjet ijrosi hisobotini tayyorlash jarayoni keltirilgan.

5-rasm. Byudjet ijrosi hisobotini tayyorlash jarayoni⁸



⁸ O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi" asosida tayyorlandi

Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Shunga mos ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va tegishli mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishmiz mumkinki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida byudjet jarayonini tashkil etishda davlat organlari orasida Moliya vazirligining o'rni alohida hisoblanadi. Bunga sabab, byudjet jarayonining har bir bosqichida bevosita Moliya vazirligi ishtirok etadi. Shu bois, Moliya vazirligi faoliyatini samarali tashkil qilish byudjet jarayonining samarali ijrosini ta'minlaydi.

I bob bo'yicha xulosa

Byudjet jarayoni — Davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni

Byudjet jarayoni, odatda, byudjet faoliyatining quyidagi to'rt bosqichini o'z ichiga oladi:

- byudjet loyihasini tuzish (ishlab chiqish, yaratish);
- byudjetni ko'rib chiqish (muhokama qilish) va tasdiqlash;
- byudjetni ijro etish;
- byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.

bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida byudjet jarayonini tashkil etishda davlat organlari orasida Moliya vazirligining o'rni alohida hisoblanadi. Bunga sabab, byudjet jarayonining har bir bosqichida bevosita Moliya vazirligi

ishtirok etadi. Shu bois, Moliya vazirligi faoliyatini samarali tashkil qilish byudjet jarayonining samarali ijrosini ta'minlaydi.

II BOB. BYUDJET JARAYONINI TASHKIL QILISH VA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINING AMALDAGI HOLATI

2.1 Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish va ularni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlashning holati

Byudjet munosabatlarini tashkil qilishning dastlabki jarayonlari uning daromad qismini shakllantirishdan iboratdir. Byudjet daromadlari Byudjet funksiyalaridan kelib chiqqan holda unga yuklatiladigan vazifalarni amalga oshirish uchun zaruriy moliyaviy manba rolini o'ynaydi. Shuning uchun ham daromadlarning asosiy funksiyasi tegishli byudjet xarajatlarini amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarni shakllantirish hisoblanadi.

Mahalliy byudjetlarning daromad va xarajat qismlari mustaqil va shu bilan birga o'zaro bir biriga bog'lik kategoriyalar hisoblanadi. Ulardan har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Daromadlar mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining moliyaviy bazasi bo'lib xizmat qiladi, xarajatlar esa hududiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi.

Xarajatlar bir vaqtning o'zida daromadlarga bog'liq, daromadlar esa, o'z navbatida, mahalliy hokimiyat organlarining foydalanilayotgan mablag'lar xajmiga bog'liq. Mahalliy byudjetlarning shakllanishi jarayonida mahalliy hokimiyat organlari va ushbu hududda ro'yxatdan o'tgan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida ma'lum bir pulli munosabatlardan kelib chiqadi. Bu munosabatlarni namoyon qilish shakli bo'lib korxona tashkilotlar va aholining turli xil soliq va nosoliq to'lovlari xizmat qiladi. Byudjet daromadlari ma'lum darajada xujalik yuritish tizimi va usullariga, shuningdek jamiyat hal qiladigan masalalariga bog'liqdir. Masalan, xo'jalik yuritishning ma'muriy-buyruqbozlik usulida, ya'ni barcha ishlab chiqarish vositasitalari davlat ixtiyorida bulganida, byudjetga turli xil to'lovlarni undirishning qattiq markazlashgan tizimi amal qilgan.

Davlat budjeti solikli daromadlarini shakllantirishda soliq turlarining roli

haqida so'z yuritadigan bo'lsak, asosiy soliq turlaridan bo'lgan jismoniy

1– jadval

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining 2015 yilgi daromadlari tizimi⁹

№	Ko'rsatkichlar	2015 yil	
		Mlrd. so'mda	Jamiga nisbatan % da
	Jamlanma byudjet daromadlari	59837,7	100,0
I	Davlat maqsadli pul jamg'armalarsiz daromadlar-jami	36184,9	60,5
1.	To'g'ri (bevosita) soliqlar	8554,3	14,3
1.1	Yuridik shaxslarning foydasiga soliq	1284,8	2,1
1.2	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovi bo'yicha davlat byudjetiga ajratma	1193,1	2,0
1.3	Davlat byudjetiga yagona soliq to'lovi bo'yicha ajratma, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun	1067,1	1,8
1.4	Jismoniy shaxslarning daromadiga soliq	3648,8	6,1
1.5	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarning daromadiga qat'iy belgilangan soliq	617	1,0
1.6	Obodanlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq	743,5	1,2
2.	Egri (bilvosita) soliqlar	19115,8	31,9
2.1	Qo'shilgan qiymat solig'i	10721,7	17,9
2.2	Aktsiz solig'i	5528,8	9,2
2.3	Bojxona boji	1583,6	2,6
2.4	Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moli uchun soliq	1281,7	2,1
3.	Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	5741,8	9,6
3.1	Mol-mulk solig'i	1716,7	2,9
3.2	Yer solig'i	929,6	1,6
3.3	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	2931,8	4,9
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	163,7	0,3
4.	Ustama foydadan soliq	548,2	0,9
5.	Boshqa daromadlar	2224,8	3,7
II	Davlat maqsadli jamg'armalarining (Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi, Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma, Davlat mulkini xususiyashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasining mahsus hisobvarag'I, Moliya vazirligi huzuridagi unumdor yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi) daromadlari	21389,3	35,7
IV	O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining daromadlari	2263,5	3,8

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda PQ-2270-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida" gi qarorining 3-ilovasi asosida tayyorlandi

shaxslar daromadiga soliq stavkalari belgilash yillar davomida muammoli hal qilingani holda tadrijiy ravishda shakllantirib kelingan. Quyidagi jadvalda 2015 yilgi byudjet daromadlari manbalari va salmog'ini ko'rishimiz mumkin.

Demak, ko'rinadiki, 2015 yilda jamlanma byudjet daromadlari 59837,7 mlrd. so'm bajarilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, Davlat byudjeti xarajatlariga ham nazarimizni qaratadigan bo'lsak, buni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin (2-jadval).

2015 yilda jamlanma byudjet xarajatlari 61811,5 mlrd. so'm bajarilishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarida eng katta salmoqni maorif, sog'liqni saqlash, oilalarga ijtimoiy nafaqalar, shu jumladan bolali oilalar, iqtisodiyot xarajatlari, markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari egallaydi. Ijtimoiy sohalar va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun xarajatlar - jami byudjet xarajatlarning deyarli 60 % ini tashkil etayapti.

Byudjetlararo munosabatlarni shakllantirish va soliq tizimi transformatsiyasiga printsipial yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini baholash uchun quyidagi savollarni ko'rib chiqish mumkin turli hududlardagi asosiy kapitalda ishlab chiqarish va investitsiyalar dinamikasi, mahalliy hokimiyatlarning moliyaviy va u orqali boshqaruv imkoniyatlariga asosiy chegaralar qo'yadigan respublika byudjet-soliq munosabatlarining asosiy jihatlari, ishlab chiqarishni soliq orqali qo'llab-quvvatlash.

Hududlarda mahalliy byudjetlarni tuzishda ularning daromadlar strukturasi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tuluq nazorat kilinishi va ularning daromalari imkoniyat darajasida mahalliy soliqlar va yigimlar xisobiga shakllantirilishi lozim..

Turli darajadagi byudjetlarning daromadlar strukturasi optimallashtirishning muxim jixatlaridan biri soliq manbalariga soliq yukni ketma-ket urnatilishi hisoblanadi.

**O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining
2015 yilgi xarajatlari tizimi¹⁰**

№	Ko'rsatkichlar	2015 yil (reja)	
		Mrld. so'm	Jamiga nisbatan (%)
I.	Davlat maqsadli jamg'armalarsiz xarajatlar, jami	37967,7	61,4
1.	Ijtimoiy xarajatlar	22457,0	36,3
1.1.	<i>Ijtimoiy sohalar va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun xarajatlar, jami</i>	21485,2	34,8
	<i>Shu jumladan:</i>		0,0
	Maorif	12776,2	20,7
	Sog'liqni saqlash	5372,5	8,7
	Madaniyat va sport	388,3	0,6
	Fan	245,3	0,4
	Ijtimoiy ta'minot	150,4	0,2
	Oilalarga ijtimoiy nafaqalar, shu jumladan bolali oilalar	2279,8	3,7
1.2.	<i>Qishloq joylarida individual turar joylari qurilishini hammoliyalashtirish dasturi kredit liniyasi</i>	971,8	1,6
2.	NNT va boshqa fuqarolik jamiyatlari institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlari	10,0	0,0
3.	Iqtisodiyot xarajatlari	4119,7	6,7
	<i>Ulardan:</i>		0,0
3.1	<i>Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan iste'mol qilinadigan elektr energiyasi uchun to'lov</i>	1223,0	2,0
3.2	<i>Moliya Vazirligi huzuridagi sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash fondiga yo'naltiriladigan mablag'lar</i>	334,0	0,5
3.3	<i>Kam hosilli erlarda davlat ehtiyoji uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaradigan fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun mablag'</i>	253,1	0,4
4.	Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari	1800,0	2,9
5.	Davlat xokimiyati, boshqaruv va sud organlarini saqlash xarajatlari	1199,9	1,9
6.	Fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	436,6	0,7
7.	Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlar viloyat byudjetlari va Toshkent shahar byudjeti zahira jamg'armasi	110,0	0,2
8.	Boshqa xarajatlar	7834,5	12,7
II.	Byudjet taqchilligi	-1782,9	-2,9
III.	Davlat maqsadli jamg'armalarining (Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruktsiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi, Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma, Davlat mulkini xususiyashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasining mahsus hisobvarag'i, Moliya vazirligi huzuridagi unumdor erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasining) xarajatlari	21389,3	34,6
IV.	O'zbekiston Respublikasini Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining xarajatlari	2454,5	4,0
	Jami xarajatlar	61811,5	100,0

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda PQ-2270-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida" gi qarorining 3-ilovasi asosida tayyorlandi

Keyingi vaqtlarda solikli daromadlarning byudjetlar o'rtasida taqsimlanishida shunday tendentsiya kuzatilmoqdaki ularni hisobga olmaslik byudjet munosabatlarini shakllantirish nazariyasi nuqtai nazaridan mantiqiy xatoliklarga olib kelishi mumkin.gap shundaki, avval amaliy jixatidan bir-biriga sinonim xisoblangan hududlarni “byudjet” va “moliyaviy” ta'minlanganligi bugun uzining miqdoriy va moxiyat tavsiflari buyicha farqlanmoqda. Oldingi davrlarda hududlardagi mahalliy xokimiyat organlari byudjet mablaglaridan tashkari uzlarining xarajatlarini moliyalashtirish manbalariga ega emas edilar. Bu holat hozirgi vaqtda uziga xos sifat kursatkichlari bo'yicha uzgardi.

Birinchidan, ijtimoiy sohalarda faol tijoratlashish jarayoni sodir bulmoqda. Hozirgi sharoitda soliq tulovchi uzining xususiy daromadidan kommunal xizmatlar, joy tulovlari, ta'lim, sogliqni saqlash va shu kabi ijtimoiy xizmatlar uchun tulovlarni tulamoqdalar. Shunga muvofiq, ravishda davlatning ijtimoiy kafolatlarining ayrim turlari moliyaviy ta'minoti buyicha byudjet xarajatlari ulushi kamaymoqda. Balansida ijtimoiy infrastruktura muassasalari va ob'ektlarini saqlash zaruratidan cheklanish maqsadida aksariyat yirik korxonalar uzlarining ishchi xizmatchilariga ijtimoiy extiyojlari uchun pul tulovlarini kupaytirishni amalga oshirmoqdalar.

Ikkinchidan, hududlardagi mahalliy byudjetlarda daromadlarning yangi manbalari paydo buldi. Maxsulot eksporti rivojlangan hududlarda tashqi iqtisodiy faoliyat buyicha sezilarli daromalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bulmoqdalar.

Uchinchidan, ayrim hududlar uchun markazdan yuqori darajadagi davlat dotatsiyalarini olmoqdalar. Shuningdek, mahalliy byudjetlar uchun soliqsiz daromad tushumlarini yangi manbalarini shakllantirish borasida keyingi yillarda qator institutsional uzgarishlar kuzatilmokda.

Hozirgi sharoitda rivojlangan mamlakatlarda mahalliy byudjetlar moliyaviy mustaqilligini ta'minlash yulida qator islohotlar amalga oshirilib,

ularning ustivor yunalishlaridan biri daromadlarning noanaviy manbalarini shakllantirish yunalishida mahalliy xokimiyatlarning kapitallar bozorida emitent sifatida faol katnashishi hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida daromadlar taqsimlanishining samaradorligini oshirishning ustivor yunalishi mahalliy byudjetlar daromadlarida tartibga soluvchi umumdavlat soliqlari ulushini kamaytirish va ularning xususiy daromadlarini oshirish buyicha byudjet islohotlari amalga oshirilishi lozim. Bu bilan mahalliy xokimiyat organlarini soliqqa tortishdagi sub'ektiv kayfiyatlarini yuqotish imkoniyatiga ega bulinadi.

Jahon amaliyotida, byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida daromadlarni qayta tizimlashtirish va mahalliy byudjetlarni solikli daromadlar bilan ta'minlash hal qilishning quyidagi printspial yondashuvlari kullaniladi.

Hududlarning soliqqa tortishni xususiy bazalarini ko'paytirish hamisha ham o'zini oqlamaydi. Aytish joizki, soliqqa tortish sohasidagi mahalliy xokimiyat organlarining vakolatlarini hozirgi holati yetarli deb aytishimiz mumkin. Biroq, mavjud vakolatlar soliqqa tortish sohasidagi aloxida masalalarga tegishli bulib, faol mahalliy byudjet siyosatini amalga oshirishni shakllantiruvchi yagona kompleksni uzida aks ettirmayapti. Bundan tashqari, mahalliy xokimiyat organlari uzlarining iqtisodiy rivojlanish extiyojlari uchun real zarur bulgan daromad xuquqni olishga intilmayaptilar balki, ularnin xisob kitoblari buyicha markazdan imkon darajasida ortikcha daromadlarni olishga intilmokdalar. Bu holat byudjetlararo munosabatlar tizimini yetarli darajada takomillashmagani va mamlakat miqyosida huquqiy vaziyatlarni mavxumligi bilan belgilanmoqda.

Keyingi yillarda byudjet tizimida solikli daromadlarni byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlashning yangi usulidan foydanilayotir ya'ni, foyda soligi, QQS, aksiz soligi, jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad soligi tushumlarini taqsimlanishi. Daromadlar taqsimlanishining mazkur transformatsiyasi O'zbekiston respublikasi byudjet amaliyoti uchun byudjet

tizimi bo'g'inlari o'rtasida tartibga soluvchi daromadlarni taqsimlanishi avvalo mahalliy darajada amalga oshirilmoqda.

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari faolligini yuksaltirish buyicha amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi sharoitida mazkur usul mahalliy byudjetlarning moliyaviy imkoniyatlarini oshirishga yunaltirilgan.

Byudjetning tartibga soluvchi daromadlarining asosiy manbai xisoblanuvchi qushilgan qiymat soligining asos meyoriy ajratmalarini quyidagicha amalga oshirilishi lozim. Respublika darajasida Respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida QQS tushumlarini taqsimlanishining yagona asos barqaror asos stavkalari urnatiladi. Qushilgan qiymat soligi buyicha asos stavkalari yuqori turuvchi byudjetlarga utkazib beriladigan mahalliy hududlarda yigiladigan minimal ulushinigina aniqlaydi. Sungra, hududlarni iqtisodiy potentsialining real holati, soliqlar tulovi faolligi darajasi va byudjet resurslari bilan ta'minlanganligi darajalariga bog'lik holda asos stavka soliq tulovchilar uchun oldindan ma'lum va yagona bulgan uslubiyat buyicha to'g'rilanishi mumkin.

Hozirgi paytda xorijiy va mahalliy matbuotda chop etilayotgan iqtisodiy adabiyotlarda byudjet tizimining turli bo'g'inlari o'rtasidagi uzaro soliq munosabatlarini islox qilish xakida kator takliflar mavjud bulib, ularning orasida jamiyatning tashkiliy ma'muriy birliklari (mahalliy uz-uzini boshqarish organlari) ga uzlarining aniq xukukiy funktsiyalarini bajarish va tegishli aholiga kafolatlangan qonuniy ijtimoiy andozalarni takdim qilish majburiyatlari uchun zaruriy kushimcha soliqlar va yigimlarni joriy qilish xukukini berish masalasi xam uz aksini topgan.

Byudjet daromadlarini shakllantirishning amaldagi holatida soliq yuki darajasi yetarli darajada yuqori va ularning salmog'ini mahalliy byudjetlardagi biriktirilgan daromadlarni kupaytirish uchun kushimcha soliqlar joriy etish xisobiga kupaytirish maqsadga muvofiq emas.

Bizning fikrimizcha hozirgi sharoitda mavjud solikli daromadlarni byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida to'liq yoki fiksirlangan ulushda doimiy yoki uzoq muddat asosida qayta taqsimlash lozim.

Bunday yondashuv ma'lum darajada mahalliy byudjetlarning soliq bazasini barkarorlashtiradi, turli darajadagi byudjet ta'minlanganlikgi va turli soliq potentsiali sharoitida hududlarning soliq bazalarini shakllanishida tenglashtiruvchi yondashuv saqlanadi.

Mahalliy byudjetlarning amaldagi biriktirilgan daromad manbalari asosan real soliqlar xisobiga to'g'ri kelib mazkur soliqlar soliq tizimidagi mavjud soliqlar salmog'ida soliq qarzдорligi eng kup bulgan soliqlar hisoblanadi. Bu holat aksariyat mahalliy byudjetlar uzlarining joriy xarajatlari uchun zaruriy pul mablaglariga ega bulmasligi natijasida vaqtinchalik kassali uzilishlarni vujudga keltirmokda va respublika byudjetidan ssudalar olish xisobiga joriy xarajatlarni moliyalashtirish imkoniyatiga ega bulinmoqda.

Mahalliy byudjetlar uchun Respublika byudjetining daromad manbai xisoblanuvchi aylanmadan olinadigan iste'mol soliqlar buyicha daromadlar biriktirilishi lozim. Masalan, AQShda ayrim tovarlarga joriy etilgan aktsiz soliqlari mahalliy byudjetlarning daromad manbalari hisoblanadi. Mazkur soliq turlaridan ayrimlarini mahalliy byudjetlar uchun biriktirish ularning moliyaviy mustaxkamligini ta'minlaydi va kam miqdordagi aylanma kassa qoldiqlari xisobiga xam mahalliy byudjetlar ijrosini tulakonli amalga oshirish imkoniyatlari tugilishi mumkin.

Respublika soliq tizimi soliqlarni urnatish, undirish, qayta taqsimlashning aniq mukammal mexanizmiga ega bulishi xamda bunda birinchi navbatda soliq tulovchi yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini xisobga olish lozim.

2.2. Byudjet jarayonini amalga oshirishda byudjet majburiyatlari taqsimlanish mexanizmining tahlili

Byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida xarajat vakolatlarini taqsimlanishi byudjetlararo munosabatlarning markaziy muammolaridan biri hisoblanadi.

Byudjet xarajatlari davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy funktsiyalaridan kelib chiqqan holda jamiyat oldidagi vazifalarini amalga oshirish uchun zaruriy mablaglarni uzaro taqsimlanishini uz ichiga oladi. O'zbekiston respublikasi "Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuniga muvofiq markaziy xokimiyat organi va mahalliy xokimiyat organlariga tegishli biriktirilgan xarajatlar yunalishlari aniqlab berilgan.

3- jadval.

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida xarajatlarning taqsimlanish vakolatlari¹¹

Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan xarajatlar	Mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan xarajatlar.
1. Fan, ta'lim, jismoniy tarbiya, soglikni saqlash va sport (Respublikaga buysinuvchi tashkilot va muassasalar buyicha) xarajatlari 2. Ijtimoiy ta'minot 3. Mudofaa, milliy xavfsizlik va jamiyat tartibini saqlash jarajatlari. 4. Sud organlari va prokuratura faoliyatini ta'minlash. 5. Davlat zaxiralarini saqlash xarajatlari 6. Davlatning markazlashtirilgan investitsiyalarini amalga oshirish 7. Davlat xokimiyati va boshqaruvi, O'zbekiston respublikasining xorijiy davlatlardagi rasmiy va diplomatik vakillar va missiyalar buyicha xarajatlar 8. Agrosanoat kompleksi buyicha byudjet tashkilotlari xarajatlari 9. Suv xujaligi tizimi va hududiy suv xujaligi tizimlari buyicha xarajatlar 10. Yerni qayta ishlash, tabiatni muxofaza kilish tadbirlari buyicha xarajatlar 11. O'rmon va balikchilik xo'jaliklari bo'yicha xarajatlar 12. Qishlok xo'jaligi zararkurandalariga karshi kurash buyicha xarajatlar 13. Arxitektura, qurilish, loyihalashtirish sohasidagi texnik xujjatlashtirish, standartlar, meyoriy xujjatlarni qayta ishlash buyicha xarajatlar 14. Davlat texnika sinovlari. 15. Gidrometerologiya tadbirlari xarajatlari Qonunchilikka muvofiq boshqa maqsadlardagi xarajatlar.	1. Mahalliy hududlarda davlat xokimiyatiga boshqaruv organlari faoliyati xarajatlari 2. Maktabgacha, umumiy-o'rta va o'rta maxsus, maktabdan tashqari va professional ta'lim sohasi xarajatlari. 3. Mahalliy hududlarda davlat xokimiyat organlarining ixtiyorida bo'lgan ijtimoiy soha ob'ektlari bo'yicha xarajatlar 4. Mahalliy xokimiyat organlari byudjet muassasalari tomonidan amalga oshiriladigan ilm- fan, madaniyat, soglikni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot tadbirlari buyicha xarajatlar 5. Uy-joy kommunal xujaligi faoliyatini ta'minlash xarajatlari 6. Mahalliy hududlardagi ijro etuvchi organlarning markazlashtirilgan investitsiyalarni amalga oshirish xarajatlari 7. Zaruriy materiallarni jalb kilish xarajatlarini bir kismini koplash yuli bilan individual va kooperativ uy joy qurilishni moliyalashtirish xarajatlari. 8. Agrosanoat kompleksi buyicha tashkilotlari va tadbirlarni

¹¹Amaldagi qonunchilikka muvofiq talaba tomonidan aks ettirildi.

Shuningdek, amaldagi qonunchilikka muvofiq umumiy byudjet xarajatlarini markaziy xukumat organlari va mahalliy xokimiyat organlariga birlashtirilgan xarajatlar va uzaro hamkorlikda moliyalashtiriladigan xarajatlarni aniqlab beradi.

Ko'rinib turibdiki, Respublika byudjetidan mustaqil ravishda moliyalashtiriladigan xarajatlarga mudofaa sohasini moliyalashtirish xarajatlari, halkaro faoliyat va davlat qarzlariga xizmat kursatish xarajatlari kiritiladi. mahalliy byudjetlardan esa uy joy kommunal xujaligi xarajatlarini moliyalashtirish buyicha xarajatlar kiritiladi. Xarajatlarning qolgan barchalari respublika va mahalliy byudjetlar tomonidan hamkorlikda moliyalashtiriladi.

Keyingi yillardagi byudjet islohotlaridagi strukturaviy uzgarishlar va yuqorida keltirilgan chizma ma'lumotlariga asoslangan holda byudjet tizimida quyidagi tendentsiyalarni kuzatishimiz mumkin:

- ijtimoiy sohalarni (ta'lim, soglikni saqlash) moliyalashtirishda mahalliy byudjetlarning salmog'i ortib bormoqda. Chunonchi, hozirgi sharoitda ijtimoiy sohalardagi umumiy xarajatlarning taxminan 86%i mahalliy byudjetlar tomonidan moliyalashtirilmokda;

- mahalliy byudjetlardan ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish xarajatlarning o'sish tendentsiyalarida ta'lim sohasini moliyalashtirish yuqori salmoqqa ega bulmoqda;

Byudjetlararo munosabatlarni barqarorlashtirishning asosiy sharti turli darajadagi byudjetlar moliyaviy bazasini shakllantirish jarayonlarini o'zaro bog'lashdir.

Ular moliyaviy bazalari har bir byudjetning daromadidan tartibga soluvchi, birlashtirilgan soliqlar tushumidan shuningdek yuqori byudjetdan beriladigan moliyaviy yordamlardan tashkil topadi.

Barcha soliq tushumlarini hisobga olish maqsadida barcha soliqlarni respublika byudjetiga markazlashgan yig'imi va tushumi amalga oshiriladi. Undan keyin turli byudjet bo'g'inlar bo'yicha ularning taqsimoti amalga oshadi.

Byudjetlar o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlash nuqtai-nazaridan soliqlarning bo'linishi va ularni byudjetning ma'lum bo'g'iniga biriktirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada Prezidentimiz quyidagi fikrni bildirganlar: «Muayyan byudjetlarni shakllantirish manbalari bo'lgan respublika soliqlari bilan mahalliy soliqlar o'rtasida aniq chegara o'tkazish soliq tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishidir».¹²

Bizning tahlil ob'ektimiz bo'lgan Toshkent shaxar byudjeti tarkibi hisoblanadi. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Ammo byudjet daromadlari tarkibida umumdavlat soliqlaridan me'yoriy ajratmalar mavjud. Mamlakatimizda 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturi dorasida amalga oshirilgan yana bir muhim tadbir – soliq yukini engillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va uni unifikatsiya qilish bo'yicha xo'jalik tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'shimcha choralar ko'rilganidir.

4-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mahalliy byudjetlarning daromad bazasi shakllantirishda respublika byudjetidan beriladigan subventsiyalarning salmog'i yuqoriligicha qolmoqda.

Byudjet amaliyotimizda qo'llanilaytgan dotatsiya uslublari mahalliy byudjetlarning respublika byudjetiga murojaat etishi lozimligini bildirib, ularni o'z hududlaridagi boqibeg'amlik «fazilat»larini kuchaytiradi. Shu boisdan mahalliy byudjetlarni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni byudjetlararo taqsimlashni to'g'ri yo'lga qo'yish orqali balanslashtirishga erishish lozim.

Hududlarning byudjetdan amalga oshirilayotgan xarajatlarining etarli daromadlar bilan ta'minlanmaganligi, mahalliy byudjetlarni davlat tomonidan daromadlarni tartibga solishda birlamchi Respublika byudjetida yig'ilgan daromadlarni bir qismini qayta taqsimlashni talab qiladi. Bu maqsadda barcha davlatlar amaliyotida dotatsiya va subventsiyalardan foydalaniladi. 2001 yildan boshlab O'zbekistonda dotatsiyadan mahalliy byudjetlar daromadlarini tartibga

¹² I.A.Karimov «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida»-T.,O'zbekiston 1996. 63-bet

solishda foydalaniladi.

Dotatsiya mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlarini moslashtiruvchi usul sifatida foydali bo'lgani holda u ayrim salbiy xususiyatlarga ham egadir. Mahalliy byudjet daromadlarining bu manbai mahalliy hokimiyat organlarida boqimandalik kayfiyatini yuzaga keltiradi. Ularning qo'shimcha daromad topish, o'z daromadlarini ko'paytirishga qiziqishlarini pasaytiradi, byudjetlarni o'z daromad qismini bajarish imkoniyatlarini cheklabgina qolmay, moliyaviy nazoratning susayishiga sharoit yaratadi. Ammo, shunga qaramasdan mahalliy byudjetlarni kerakli mablag'lar bilan ta'minlash usuli sifatida dotatsiyadan voz kechish ham mumkin emas. Dotatsiyadan voz kechish maqsadida doimiy tushmaydigan daromad manbalaridan ajratmalarni oshirish ham mahalliy byudjetlarni og'ir ahvolga tushirib qo'yishi mumkin. Shu sababli dotatsiyalarni aniq sharoitdan kelib chiqib, iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan hududlarga ajratish orqali ularning iqtisodiy imkoniyatlarini tenglashtirib borishga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Yuqori byudjetlardan ajratiladigan subventsiya, dotatsiya va subsidiyalar boshqa daromad turidan farq qilib, bu daromad turlari yil boshida tasdiqlangan reja miqdorida olinadi, yani bu daromad turlariga yil davomida o'zgartirishlar kiritilmaydi.

Dotatsiya (lotincha, *dotatio* – hadya, xayr-ehson) byudjetni tartibga solish usuli sifatida o'z daromadlari va byudjetni tartibga solishning boshqa mablag'lari, xususan, tartibga soluvchi daromadlaridan ajratmalar etishmagan taqdirda xarajatlar va daromadlar o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qat'iy summada beg'araz va qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'laridir.

Subventsiya (lotincha, *subvenire* – yordamga kelish) yuqori byudjetdan quyi byudjetga muayyan maqsadlarda foydalanish sharti bilan beg'araz ajratiladigan pul mablag'laridan iborat.

Respublika byudjetdan ajratiladigan subventsiya ko'rinishdagi ajratmalarning 2015 yil uchun belgilangan miqdorini tahlil qilib o'taylik. 2015

4-jadval

2015 yilgi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxri mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlarining hajmi, hamda Respublika byudjetidan subventsiyalar hajmining chegarasi¹³

№	Hududlar nomi	Daromadlar		Xarajatlar		Xalq talimi muassasalariga ish haqi va yagona ijtimoiy to'lov hamda ijtimoiy nafaqalarni moliyalashtirish uchun subventsiyalar	
		Mln. so'mda	Jami daromadlarga nisbatan % da	Mln. so'mda	Jami daromadlarga nisbatan % da		Jami subvensiya larga nisbatan % da
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	763539,4	4,7	1269898,6	6,8	506359,2	20,1
2.	Andijon viloyati	1575362,5	9,7	1575362,5	8,4		0,0
3.	Buxoro viloyati	1075440,4	6,6	1075440,4	5,7		0,0
4.	Jizzax viloyati	447212,6	2,8	814441,7	4,3	367229,1	14,6
5.	Qashqadaryo viloyati	1676250,1	10,3	1676250,1	8,9		0,0
6.	Navoiy viloyati	725307,7	4,5	725307,7	3,9		0,0
7.	Namangan viloyati	875649,6	5,4	1473042,9	7,9	597393,3	23,7
8.	Samarqand viloyati	1742937,3	10,7	1992936,4	10,6	249999,1	9,9
9.	Surxondaryo viloyati	754312,2	4,7	1399373,6	7,5	645061,4	25,6
10.	Sirdaryo viloyati	407016,4	2,5	562728,8	3,0	155712,4	6,2
11.	Toshkent viloyati	1570515,2	9,7	1570515,2	8,4		0,0
12.	Fargona viloyati	2002139,4	12,3	2002139,4	10,7		0,0
13.	Xorazm viloyati	1033576,4	6,4	1033576,4	5,5		0,0
14.	Toshkent shahri	1569381,7	9,7	1569381,7	8,4		0,0
	JAMI	16218640,9	100	18740395,4	100	2521754,5	100

yil mahalliy byudjetning balanslilikini taminlash maqsadida Respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga 2521754,5 mln so'm miqdorida subvensiya ko'rinishdagi mablag'lar ajratilishi rejalashtirilgan.

2015 yilga respublika byudjetidan dotatsiyalar rejalashtirilmagan.

Subventsiyalarning 20,1% i, Qoraqalpog'iston Respublikasiga, 14,6% i Jizzax viloyatiga, 23,7% i Namangan viloyatiga, 9,9% i Samarqand viloyatiga,

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda PQ-2270-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida" gi qarorining 30-ilovasi asosida tayyorlandi

25,6% i Surxondaryo viloyatiga va 6,2% i Sirdaryo viloyatiga taqsimlanishi rejalashtirilgan

Amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mahalliy byudjetlarning biriktirilgan daromadlari ulushi nisbatan past darajada bo'lib, ular 30-40 foiz oralig'ini tashkil qilmoqda. Jahon amaliyotida esa, bu ko'rsatkich 70 foizgachani tashkil etadi.

Biriktirilgan daromadlar – bu byudjet huquqi sub'ektiga tegishli mablag'dir, ya'ni yuqori byudjetni chetlab o'tib, doimiy asosda, qat'iy belgilangan ulushda yoki to'liqligicha tegishli byudjetga kelib tushuvchi mablag'lardir. Biriktirilgan daromadlar asosini mahalliy soliq va yig'mlar, qat'iy ulushda va doimiy asosda mahalliy byudjetlarga berilgan umumdavlat soliqlardan o'tkazmalar tashkil etadi. Davlat mahalliy hukumat organlariga ular qarmog'idagi biriktirilgan daromadlarning ortiqcha mavjudini moliyaviy resurs sifatida, ularga biriktirilgan vazifalarni bajarish uchun taqdim etadi. Shu yo'l bilan davlat turli darajadagi byudjetlarni boshqarib turadi, ularning daromad va xarajatlarini balanslashtiradi.

Mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq mahalliy byudjetlarga mahalliy soliqlar va yig'implar biriktirilgan. Ushbu soliqlar bo'yicha stavkalarni, qoidaga muvofiq markaziy hukumat organi belgilaydi. Ko'pgina mamlakatlarda ushbu soliqlarning soni 20 dan 100 gacha muvozanatda bo'ladi, ularning mahalliy byudjet daromadlaridagi ulushi 30-70% gacha bo'ladi.

To'g'ri soliqlarning turlari bo'yicha mahalliy byudjetlarning biriktirilgan daromadlaridagi nisbati ham turli davlatlarda turlichadir. Skandinaviya mamlakatlarida foyda, daromad soliqlaridan tushadigan tushumlar, biriktirilgan daromadlar jami summasining 80-90 foizini tashkil qiladi. Belgiya, Germaniya, Avstriya davlatlarida xuddi shu ko'rsatkich 50 foizdan ortiqdir. Irlandiyada mulk soliqlar yagona biriktirilgan soliqlar bo'lib hisoblanadi. Niderlandiyada esa mulk soliqlar hisobiga barcha biriktirilgan soliqlarning 2/3 qismi to'g'ri keladi. Yaponiyada mahalliy byudjetlarga biriktirilgan soliqlardan tushadigan

daromadlarning 48 foizi uy-joy solig'iga, 21 foizi esa ko'chmas mulk solig'iga to'g'ri keladi.¹⁴

Keyingi yillarda mahalliy byudjet xarajatlarining umumiy ulushida boshqaruv personallarini qisqarishining natijasi xisoblanuvchi boshqarish organlari xarajatlari qisqarib bormoqda.

Mahalliy byudjetlarning xarajatlari ijtimoiy sohalar buyicha ob'ektlarni mahalliy byudjetlar balansiga utkazilishi bilan boglik holda usib bormokda.

Bozor iqtisodiyotiga utish sharoitidagi iqtisodiy muxitning nobarkarorligi natijasida aksariyat korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holati yomonlashdi va tabiiy ravishda ularning balansida mavjud ijtimoiy infrastruktura ob'ektlarini saqlash va ularni moliyalashtirish imkoniyatlariga ega bulmay qoldilar. Birok mahalliy byudjetlar xam bunday ob'ektlarni moliyalashtirishning barkaror imkoniyatlariga ega deb ayta olmaymiz. Shuning uchun bunday ob'ektlarni mahalliy byudjetlarga utkazish bilan muammoni hal kilib bulmaydi va moliyalashtirishning kushimcha manbalarini izlash lozim buladi. Shu bilan boglik holda Respublikada 2006 yilgacha ijtimoiy infrastruktura ob'ektlarini mahalliy byudjetlarga utkazish dasturi ishlab chikildi. mahalliy byudjetlarga utkazilayotgan ijtimoiy infrastruktura ob'ektlarini moliyalashtirish uchun manba sifatida ijtimoiy infrastruktura ob'ektlari balansida mavjud bulmagan korxonalar tomonidan tulanadigan ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish soligi joriy etildi. Mazkur soliq mahalliy byudjetlarning biriktirilgan daromad manbai hisoblanadi. Birok mazkur manba ijtimoiy infrastruktura ob'ektlarini to'liq moliyalashtirish uchun etarli xisoblanmaydi. Shuning uchun ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishning dolzarb vazifasi tibbiy xizmat, ta'lim va ijtimoiy sohaning boshqa sektorlarida pullik va pulsiz xizmat takdim etishning samarali balansini shakllantirish hisoblanadi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq mahalliy byudjetlar defitsit bilan bashorat kilinadi. Birok byudjet ijrosi jarayonida mahalliy byudjetlar djefitsitlariga yul kuyilmaydi va defitsitlar daromadlar va xarajatlarni

¹⁴ Дробозина Л.А..Фынансы, денежное обращение и кредит. Москва.: 1997, 121 стр.

restrukturizatsiya qilish yoki yuqori turuvchi byudjtlar xisobiga moliyalashtiriladi. Tarli daromad bazasiga ega bulmaslik hududlardagi ijtimoiy xizmatlarga nisbatan sotsial minimumni ta'minlash imkoniyatiga ega bulinmayapdi. Natijada hududlarni iqtisodiy faolliги keskin farkanishiga olib kelinadi va aholining turli regionlarga migratsiya jarayonini sodir bulishining omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur muammo xarajatlarning meyorlarining mavjud bulmasligi bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtda xarajatlarning asosiy kismi ularni oldingi yildagi faktik xajmi ularga muvofiq keluvchi indeksatsiyani xisobga olgan holda bashorat kilinadi. Moliyaviy resurslarni cheklanganligi xisobiga bu meyorlarga rioya kilinmayapdi.

Moliya Vazirligi xarajatlarni ob'ektiv baholash maqsadida aloxida meyorlarni hisoblash va kullashni amalga oshirmokda. Ma'lumki, ijtimoiy soha muassasalarini moliyalashtirish uchun "2000 yil ijtimoiy soha muassasalarini byudjetdan moliyalashtirish buyicha vaqtinchalik meyorlar" ishlab chikildi. Mazkur vaqtinchalik meyor buyicha moliyalashtirishda hududiy koeffitsientlardan foydalanilgan. Biroq, yuqorida kursatilgan meyorlar buyicha sezilarni qayta ishlashlarni amalga oshirish lozim edi. Modomiki, hududiy koeffitsientlar byudjet assignovaniyalar miqdori asosida qo'llanilgan bo'lsa, shu bilan birga tumanlar buyicha koeffitsientlar xam kiritilishi lozim edi.

Hozirgi vaqtda yagona amaldagi me'yor byudjet sohasidagi muassasa va tashkilotlar ishchilari uchun mexnatga xak tulash buyicha yagona tarif setkasi hisoblanadi.

Me'yolarning mavjud emasligi natijasida hududlarda 1 kishiga to'g'ri keluvchi xarajatlarni hisoblashda sezilarli tabaqalanish mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Jadval ma'lumotlaridan kurinib turibdiki, birgina Toshkent shaxri yuqori iqtisodiy rivojlanish va soliq potentsiali bilan boglik holda yuqori turuvchi byudjetdan subventsia olmasdan va umumdavlat soliqlaridan kam me'yoriy ajratmalarga ega bulishiga karamasdan, byudjet xarajatlari urtacha Respublika xarajatlaridan 2 barobar ko'p miqdorni tashkil qilmoqda.

Me'yorlarning mavjud bulmasligi, birinchidan, byudjet defitsitini qisqartirishning asosiy vositalaridan biri xisoblanuvchi xarajatlarni asoslanmagan holda qisqartirilishiga olib keladi. Ikkinchidan, byudjet mablaglaridan foydalanish samaradorligini yilma yil ta'minlash imkoniyatlariga ega bulinmaydi ya'ni agar byudjet tashkiloti ma'lum davr mobaynida energiya resurslaridan, suv va boshqa kommunal xizmatlardan foydalanishda isrofgarchilikka yul kuysa kelgusi yilda xam byudjet bunday isrofgarchilik asosidagi xarajatlarni moliyalashtirmokda.

Aholini ijtimoiy himoya tizimlarini moliyalashtirish muammosiga aloxida tuxtalib utamiz. Ijtimoiy nafakalarni moliyalashtirish buyicha majburiyatlarni mahalliy byudjetlarga berilishi va ularni taqsimlashni mahalliy xokimiyat organlariga yuklatilishining hozirgi mexanizmlari bir kator yutuklar va kamchiliklarga egadir. Hozirgi ijtimoiy- iqtisodiy islohotlar talablaridan kelib chikib aytish mumkinki mahalliy uz-uzini boshqarish organlariga beriladigan bunday vakolat bir tomondan ijtimoiy nafakalarni adresliligini ta'minlasa ikkinchi tomondan, hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda mahallalarning rolini oshishiga olib keladi. Ammo hozirgi sharoitda byudjet resurslari xisobiga ijtimoiy nafakalarni taqsimlashning joriy nazorat tizimlarining etarli shakllanmaganligi natijasida ayrim holatlarda mablaglardan foydalanishga sub'ektiv yondashuv xamda maqsadsiz foydalanish holatlari xam mavjuddir.

Turli darajadagi byudjet tizim bo'g'inlari o'rtasida xarajat majburiyatlarini taqsimlash buyicha byudjetlararo munosabatlarni islox qilishni quyidagi yunalishlarini ko'rib utishimiz mumkin:

- respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida xarajatlarni moliyalashtirish buyicha vakolatlarni aniq taqsimlash lozim;

- hozirgi sharoitga mos holda ijtimoiy davlat andozalari va meyoriy asoslarni ishlab chikish va amaliyotda kullash lozim.

- mahalliy byudjetlar uchun yetarli moliyaviy bazani shakllantirilmasdan ularga xarajat vakolatlarini yuklatilmasligi lozim.

II bob bo'yicha xulosa

Demak, ko'rinadiki, 2015 yilda jamlanma byudjet daromadlari 59837,7 mlrd. so'm bajarilishi rejalashtirilgan.

2015 yilda jamlanma byudjet xarajatlari 61811,5 mlrd. so'm bajarilishi rejalashtirilgan.

2015 yil mahalliy byudjetning balansliligini taminlash maqsadida Respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga 2521754,5 mln so'm miqdorida subvensiya ko'rinishdagi mablag'lar ajratilishi rejalashtirilgan.

2015 yilga respublika byudjetidan dotatsiyalar rejalashtirilmagan.

Subventsiyalarning 20,1% i, Qoraqalpog'iston Respublikasiga, 14,6% i Jizzax viloyatiga, 23,7% i Namangan viloyatiga, 9,9% i Samarqand viloyatiga, 25,6% i Surxondaryo viloyatiga va 6,2% i Sirdaryo viloyatiga taqsimlanishi rejalashtirilgan

III BOB. G'AZNACHILIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI BYUDJET JARAYONIDA MOLIYA VAZIRLIGINING AHAMIYATINI OSHIRISH MASALALARI

2004 yil 26 avgust 664-II-sonli “Davlat byudjetining g’azna ijrosi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining qonunining maqsadi O’zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining (shu jumladan davlat maqsadli jamg’armalarining) va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag’larining g’azna ijrosi (bundan buyon matnda Davlat byudjetining g’azna ijrosi deb yuritiladi) sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Davlat byudjeti g’azna ijrosining asosiy printsiplari kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligidan iborat.

Davlat byudjetining g’azna ijrosi Davlat byudjetining barcha daromadlarini yagona g’azna hisobvarag’iga kiritishdan, shuningdek Davlat byudjetining xarajatlarini shu hisobvaraqqdan to’lashdan iborat.

Davlat byudjetining g’azna ijrosi moliya yili mobaynida hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan qo’shimcha vaqt davrida amalga oshiriladi.

Davlat byudjetining g’azna ijrosi qonun hujjatlarida belgilab qo’yiladigan maxsus vakolatli moliya organi hamda uning Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlardagi hududiy bo’linmalari (bundan buyon matnda G’aznachilik deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.

G’aznachilikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- davlat byudjetining kassa ijrosi;
- davlat byudjeti mablag’larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- davlat byudjeti mablag’larini boshqarish;
- davlat byudjetida mablag’lar nazarda tutilgan yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig’iga binoan to’lovlarni amalga oshirish;
- byudjet tashkilotlarining tovarlar etkazib berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko’rsatish) uchun tuzadigan shartnomalarini, shuningdek buyurtmachilarning

-davlat byudjeti mablag'leri hisobidan kapital qurilish uchun tuzadigan shartnomalarini ro'yxatga olish;

-davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobini yuritish;

-davlat byudjeti ijrosining qanday borayotganligi to'g'risidagi axborotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish;

-O'zbekiston Respublikasi davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini bajarish.

G'aznachilik o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni davlat boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda bajaradi. Mazkur organlar va tashkilotlar Davlat byudjetining kassa ijrosini amalga oshirishda, uning mablag'larini boshqarishda, Davlat byudjeti mablag'larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirishda G'aznachilikka ko'maklashishlari shart.

G'aznachilik bilan davlat soliq, bojxona xizmati organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar, Davlat byudjetida mablag'lar nazarda tutilgan yuridik shaxslar, shuningdek byudjet jarayonining boshqa ishtirokchilari Davlat byudjetining g'azna ijrosi sohasidagi ma'lumotlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda almashib turadilar.

G'aznachilik yuridik va jismoniy shaxslarga ular tomonidan ortiqcha to'langan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar summolari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yagona g'azna hisobvarag'idan yoki G'aznachilikning boshqa bank hisobvaraqlaridan qaytarilishini amalga oshiradi.

Davlat byudjetining xarajatlari yagona g'azna hisobvarag'i yoki G'aznachilikning boshqa bank hisobvaraqlaridan belgilangan muddatlarda va tegishincha respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, mahalliy byudjet, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'larining qoldiqlari doirasida amalga oshiriladi.

Mablag'larni sudning qaroriga binoan o'tkazish, dotatsiyalar va ssudalarni o'tkazish yagona g'azna hisobvarag'idan yoki G'aznachilikning boshqa bank hisobvaraqlaridan Davlat byudjetida mablag'lar nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlariga G'aznachilik tomonidan o'tkaziladi.

Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi G'aznachilik tomonidan, shuningdek davlat soliq va bojxona xizmati organlari, byudjet tashkilotlari hamda davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar tomonidan Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarining yagona rejasi va byudjet tasnifi asosida tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi.

Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarining yagona rejasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot G'aznachilik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning ijrosi to'g'risidagi hisobotlar G'aznachilik tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar moliya organlariga taqdim etiladi.

Davlat byudjetining g'azna ijrosi sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida g'aznachilikni yagona hisobvarag'i joriy etilishi bugungi kundagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotimizga salbiy ta'sirini kamaytirishdagi muhim ustivor yo'nalishlardan biri hisoblandi.

Har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishida davlat byudjeti ijrosi muhim rol o'ynaydi. Byudjetni ijro etish - byudjet bo'yicha ko'zda tutilgan barcha

daromadlarning o'z vaqtida tushishini va byudjetda rejalashtirilgan xarajatlar miqdorining barchasini moliyalashtirishni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Bir so'z bilan aytganda har bir davlatning byudjeti uning iqtisodiy ko'zgusi hisoblanadi. Davlat byudjetiga kelib tushadigan daromadlar va qilinadigan xarajatlar ustidan nazorat o'rnatish davlat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Byudjet ijrosining rejasi yangi moliya yili uchun oldingi yilning oktyabr oyida tasdikdanadi. Byudjet ijrosida xususan byudjet xarajatlari yo'naltirilgan sohalar asosan davlatning rivojlanishida, har tomonlama taraqqiy etishida muhim o'rin tutadi. Shu maqsadda ularga davlat byudjetidan mablag'lar ajratiladi. Davlat byudjetidan ta'minlanadigan sohalarga ajratilgan mablag'larni o'z vaqtida va to'liq etib borishi, hamda to'g'ri ishlatilishi bu nafaqat tarmoq yoki soha balki butun davlat miqyosidagi vazifadir. Bu jarayonni to'g'ri amalga oshirishda ko'pgina rivojlangan davlatlar gaznachilik tizimidan foydalanayotgani hech kimga sir emas. Shu boisdan mamlakatimizda ham bu tizimni joriy qilish maqsadida qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Shulardan biri 2004 yilning 26 avgustida qabul qilingan «G'aznachilik to'g'risida»gi qonunidir. Bu qonun davlat byudjeti mablag'larini o'z vaqtida va samarali nazorat qilishni ta'minlashda dasturi amal bo'lib xizmat qilmoqda. G'aznachilik tizimi o'tgan 2006 yilda Respublikamizning ayrim hudularida sinab ko'rilgan bo'lsa, 2007 yildan boshlab barcha hududlarda amal qilishni boshladi. Bu tizim birinchi navbatda davlat xarajatlarini boshqarishni, uni suiste'mol qilinishini oldini olish vazifasini bajaradi. Chunki g'aznachilik davlat daromadlari va xarajatlarini yagona qo'lda jamlash imkonini beradi, ya'ni byudjet mablag'larini o'zga maqsadlar uchun va samarasiz sarf qilish holatlarini aniqlash hamda bartaraf etishni ta'minlaydi. Ushbu tizimda barcha birlamchi to'lov hujjatlari g'azna qo'lida bo'ladi va bu byudjet ijrosining to'la bajarilishini taminlaydi.

Bu tizimning yana bir alohida afzalligi g'aznachilik organlarining barpo etilishida, banklarning byudjetning daromad qismini shakllantirish jarayonida faol ishtirokini ta'minlanishidadir. Banklarning davlat byudjeti daromad qismini shakllantirish jarayonida gaznachilik tizimi aniq-puxta hisob kitobni talab qiladi

bu esa pul oqimlarini har bir kunda nazorat qilishni va samarali boshqarishni ta'minlaydi. Bu ishning amalga oshirilishi iqtisodiy rivojlanishning bir to'sig'i bo'lgan inflyatsiya darajasini nazorat qilishni osonlashtiradi. Demak g'aznachilik tizimi davlat byudjetiga daromadlarni o'z vaqtida va to'liq tushishini, shu orqali davlat byudjeti xarajatlarini to'liq hajmda moliyalashtirishni ta'minlaydi. Davlat byudjetidan moliyalashtirilgan mablag'larni joylarga samarali etkazib berishda ushbu mablag'larini hisobga olish hisobvaraqlaridan foydalaniladi. Bu hisobvaraqlarida byudjet mablag'laridan foydalanuvchilar uchun biriktirib qo'yilgan mablag'lar aks etadi. Byudjet mablag'larini tasarruf etuvchilar shu hisobvaraqlarda ko'rsatilgan summadan ortiq mablag' olish huquqiga ega emaslar. Bu hisobvaraqlar g'aznachilikda yagona tizim sifatida amalga oshiriladi va byudjet hisobvaraqlarini ochish yoki yopishga gaznachilik ruxsatisiz yo'l qo'yilmaydi.

Hozirgi davrda respublikamizda g'aznachilik tizimining joriy qilinishi barcha byudjetlar moliyaviy mablag'lari oqimini ushbu tizimning tarmoqlari orqali o'tishini taqozo etadi. Bu byudjet mablag'lari ustidan yalpi va uzluksiz nazorat o'rnatishga imkon beradi. G'aznachilik tizimi tashkil bo'lishidan oldin davlat byudjeti ijrosida xususan xarajatlar doirasida mablag'larni suiste'mol qilish va samarasiz sarflash holatlari uchrab turar edi. Bu tizimini joriy etish natijasida bu mablag'larning to'g'ri va to'liq hajmda ishlatilishiga zamin yaratildi. Davlat byudjeti harajaglarinint sarflash nafaqat byudjet tashkilotlari balki butun iqtisodiyotga o'z ta'sirini o'tkazadi. Chunki, agar tizimda belgilangan xarajatlar o'z vaqtida va belgilangan maqsadlar uchun to'liq sarflansa belgilangan sohada albatta rivojlanish bo'ladi, aksincha davlat byudjeti mablag'larini noto'g'ri sarflanishi byudjet taqchilligini yuzaga keltiradi, bu esa butun iqtisodiyotni zo'riqishiga olib keladi. Bunday holat pulni ortitscha emissiya qilinishi oqibatda inflyatsiyaga, inflyatsiya esa ko'plab ishlab chiqarish korxonalarini sinishiga va shu tufayli ishsizlikning ortiyashga olib keladi. Shundan ko'rinib turibdiki birgina davlat byudjeti ijrosini to'g'ri amalga oshirilmasligi butun iqtisodiyotni izdan chiqarishi mumkin. Hozirda

respublikamizda joriy etilgan g'aznachilik tizimi esa ana shunday salbiy oqibatlarni oldini olishda bizga dasturi amal bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish va mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida jahonda vujudga kelgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz O'zbekistonga ham birmuncha salbiy ta'sirini ko'rsatib o'tdi. Mana shunday sharoitda hukumatimiz tomonidan puxta ishlab chiqilgan byudjet-soliq siyosati o'zining ijobiy samaralarini berganligini bugungi kunda hammamiz buni yaqqol guvohi bo'lib turibmiz. O'zbekiston Respublikasida G'aznachilik inistitutini joriy qilinishi o'z samarasini berganligini va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish hamda jahon talablariga javob beradigan byudjet ijrosi tashkil etish borasidagi ishlarni muhim qismi hisoblanadi. G'aznachilik tizimini joriy qilish evaziga Respublikada davlat moliyasi jumladan mahalliy byudjet reurslarini boshqarish samaradorligini oshirishda jiddiy ilgari siljish yuz bermoqda. Davlat byudjetini G'aznachilik ijrosini joriy kilinishi byudjetni tayyorlash jarayonini takomillashtirish qisqa muddatli istiqbollik va byudjet siyosatini olib borishni joriy qilish byudjet ijrosi sifatini, soliqlarni yig'ish faoliyatini takomillashtirishga yanada kengroq sharoit yaratildi.

G'aznachilik tizimi – byudjetdan mablag' oluvchilarning majburiyatini ijroga qabul qiladi, qabul qilingan majburiyatlarga asosan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun G'aznachilik ularining nomidan va ularning topshirig'iga asosan vakolatni o'ziga oladi va byudjet mablag'larini maqsadli ishlatilishini ta'minlash asosida to'lovni amalga oshiradi. Byudjet xarajatlarini G'aznachilikning yagona hisob raqami asosida amalga oshirilishi moliyaviy rejalashtirishni ya'ni to'lovlar rejasini joriy qilish, yagona axborot tizimini joriy etish, tahlil qilish, byudjet tashkilotlari xarajatlarini joriy nazoratini va rejalashtirishni takomillashtirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti ijrosining G'aznachilik tizimi joriy etilishi bilan dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni amalga oshirish

byudjetdan mablag' oluvchilar bilan birgalikda G'aznachilik organlariga ham yuklatiladi.

Majburiyatlarni qabul qilish – bu byudjet tashkiloti tomonidan smeta xarajatlarida ko'zda tutilgan mablag'lar doirasida kelajakda moliyaviy xarajatlarni amalga oshirish harakatidir. Byudjet mablag'lari oluvchi byudjet tashkiloti raxbari yoki u tomonidan vakolat berilgan boshqa mas'ul shaxslar majburiyatlarni kabul qilish huquqiga ega buladilar.

G'aznachilik tizimida yuridik majburiyat shartnoma tegishli tartibda ro'yxatdan utkaeilganidyn keyin vujudga keladi.

G'aznachilikda yuridik majburiyatlarni hisobga olishni asosiy maqsad byudjet nazoratining samaradorligini yanada orttirish, ya'ni xarajatlarning tasdiklangan rejadan oshib ketishiga, assosiz debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarga yo'l qo'ymaslik.

Xo'jalik shartnomasi deb, taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini o'z vaqtida to'lash majburiyatini oladigan kelishuvga aytish mumkin.

Shartnomalarni tuzilishi va bajarilishi jarayoni bir qator qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Jumladan, Fuqarolik Kodeksi va 1998 yil 29 avgustdagi 670-1-sonli "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bu jarayonni tartibga soluvchi eng asosiy qonun hujjatlari bo'lib hisoblanadi.

Yuridik majburiyat vujudga kelishi uchun bu shartnomaning ro'yxatdan o'tkazilishi talab qilinadi. G'aznachilik organlari tomonidan xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar sotib olishlari uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi «Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 456-sonli qaroriga asosan davlat byudjeti, byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar mablag'lari, shuningdek hukumat kafolati ostida halqaro

va xorijiy moliya muassasalari tomonidan beriladigan xorijiy kreditlar va grantlar hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan va bitta kontrakt bo'yicha qiymati 100 ming AQSh dollariga teng miqdordan ortiq bo'lgan import va mamlakatimizdagi xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar tender savdolarini o'tkazgandan so'ng xarid qilishlari belgilangan.

Ammo aksariyat hollarda mahalliy byudjetdan moliyalashtiriluvchi byudjet tashkilotlariga xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi 456-sonli qarorida keltirilgan miqdordan kam mablag' ajratilganda shartnomalar eng yaxshi takliflarni konkurs asosida tanlab olish yo'li bilan tuziladi. Masalan, tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriluvchi umumta'lim maktabiga xom ashyo sotib olish uchun 1,0 mln so'm mablag' ajratiladigan bo'lsa, ushbu tashkilot belgilangan tartibda tanlov savdolarini o'tkazib, xulosalarini g'aznachilik organlariga taqdim etishlari talab qilinadi. Albatta tanlov savdolarida kamida uchta tashkilotni topib, ulardan eng yaxshisini tanlab olishlari kerak. Ammo ushbu hududda olinishi kerak bo'lgan xom ashyo yoki asbob-uskunani sotuvchi tashkilotlar bo'lmasligi mumkin. Bu esa byudjet tashkilotlariga qo'shimcha muammolar va xarajatlarni keltirib chiqaradi. Byudjet tashkilotlariga xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish uchun 100 ming AQSh dollariga teng miqdordan kam mablag' ajratilgan hollarda shartnomalarni tuzish uchun aniq va sodda yo'nalishlarini ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

III bob bo'yicha xulosa

Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot G'aznachilik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning ijrosi to'g'risidagi hisobotlar G'aznachilik tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi

Moliya vazirligiga, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar moliya organlariga taqdim etiladi.

Ko'pchilik holatlarda mahalliy byudjetdan moliyalashtiriluvchi budjet tashkilotlariga xom-ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi 456-sonli qarorida keltirilgan miqdordan kam mablag' ajratilganda shartnomalar eng yaxshi takliflarni konkurs asosida tanlab olish yo'li bilan tuziladi. Masalan, tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriluvchi umumta'lim maktabiga xom-ashyo sotib olish uchun 1,0 mln so'm mablag' ajratiladigan bo'lsa, ushbu tashkilot belgilangan tartibda tanlov savdolarini o'tkazib, xulosalarini g'aznachilik organlariga taqdim etishlari talab qilinadi. Albatta tanlov savdolarida kamida uchta tashkilotni topib, ulardan eng yaxshisini tanlab olishlari kerak. Ammo ushbu hududda olinishi kerak bo'lgan xom ashyo yoki asbob-uskunani sotuvchi tashkilotlar bo'lmasligi mumkin. Bu esa byudjet tashkilotlariga qo'shimcha muammolar va xarajatlarni keltirib chiqaradi. Byudjet tashkilotlariga xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish uchun 100 ming AQSh dollariga teng miqdordan kam mablag' ajratilgan hollarda shartnomalarni tuzish uchun aniq va sodda yo'nalishlarini ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Xulosa

Mamlakatimizda o'tgan yillar mobaynida olib borilgan kuchli ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning bugungi kunda xalqimiz farovonligiga xizmat qilayotganligi barchamizga ayon. Xususan, jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining mamlakatimizga ta'sirini yumshatishga biz tanlagan yo'lning o'ziga xos va mosligi natijasida yuksak natijalarga erishildi. Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi: "2009 yil, mohiyat e'tiboriga ko'ra, avvalo, eski ma'muriy-buyruqbozlik, taqsimlash tizimidan bozor munosabatlariga asoslangan boshqaruv tizimiga o'tish bo'yicha biz tanlagan, mashhur besh tamoyilni o'z ichiga olgan o'zbek modeli, davlatimiz va iqtisodiyotimizni bosqichma-bosqich, izchil isloh etish va tadrijiy rivojlantirish strategiyasi uchun tom ma'noda sinov yili bo'ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor¹⁵" – deb ta'kidlagan fikrlarida o'z ifodasini ko'rsatdi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishida amalga oshirilgan tahlillar natijalariga asoslangan holda quyidagi ilmiy xulosalarni va amaliy tavsiyalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

1. Byudjet jarayoni — Davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni

2. Byudjet jarayoni, odatda, byudjet faoliyatining quyidagi to'rt bosqichini o'z ichiga oladi:

- byudjet loyihasini tuzish (ishlab chiqish, yaratish);
- byudjetni ko'rib chiqish (muhokama qilish) va tasdiqlash;
- byudjetni ijro etish;

¹⁵ Prezident I.A.Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" nomli ma'ruzasi. 2010 yil 29 yanvar.

-byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash va uni tasdiqlash.

3. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida byudjet jarayonini tashkil etishda davlat organlari orasida Moliya vazirligining o'rni alohida hisoblanadi. Bunga sabab, byudjet jarayonining har bir bosqichida bevosita Moliya vazirligi ishtirok etadi. Shu bois, Moliya vazirligi faoliyatini samarali tashkil qilish byudjet jarayonining samarali ijrosini ta'minlaydi.

4. Ko'rinadiki, 2015 yilda jamlanma byudjet daromadlari 59837,7 mlrd. so'm bajarilishi rejalashtirilgan.

5. 2015 yilda jamlanma byudjet xarajatlari 61811,5 mlrd. so'm bajarilishi rejalashtirilgan.

6. 2015 yil mahalliy byudjetning balanslilikini taminlash maqsadida Respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga 2521754,5 mln so'm miqdorida subvensiya ko'rinishdagi mablag'lar ajratilishi rejalashtirilgan.

7. 2015 yilga respublika byudjetidan dotatsiyalar rejalashtirilmagan

8. Subventsiyalarning 20,1% i, Qoraqalpog'iston Respublikasiga, 14,6% i Jizzax viloyatiga, 23,7% i Namangan viloyatiga, 9,9% i Samarqand viloyatiga, 25,6% i Surxondaryo viloyatiga va 6,2% i Sirdaryo viloyatiga taqsimlanishi rejalashtirilgan

9. Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot G'aznachilik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etiladi.

10. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning ijrosi to'g'risidagi hisobotlar G'aznachilik tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar moliya organlariga taqdim etiladi.

11. Aksariyat hollarda mahalliy byudjetdan moliyalashtiriluvchi byudjet tashkilotlariga xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi 456-sonli qarorida keltirilgan miqdordan kam mablag' ajratilganda shartnomalar eng yaxshi takliflarni konkurs asosida tanlab olish yo'li bilan tuziladi. Masalan, tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriluvchi

umumta'lim maktabiga xom ashyo sotib olish uchun 1,0 mln so'm mablag' ajratiladigan bo'lsa, ushbu tashkilot belgilangan tartibda tanlov savdolarini o'tkazib, xulosalarini g'aznachilik organlariga taqdim etishlari talab qilinadi. Albatta tanlov savdolarida kamida uchta tashkilotni topib, ulardan eng yaxshisini tanlab olishlari kerak. Ammo ushbu hududda olinishi kerak bo'lgan xom ashyo yoki asbob-uskunani sotuvchi tashkilotlar bo'lmasligi mumkin. Bu esa byudjet tashkilotlariga qo'shimcha muammolar va xarajatlarni keltirib chiqaradi. Byudjet tashkilotlariga xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish uchun 100 ming AQSh dollariga teng miqdordan kam mablag' ajratilgan hollarda shartnomalarni tuzish uchun aniq va sodda yo'nalishlarini ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

12. Byudjet jarayoni ijrosi borasida Moliya vazirligi G'aznachiligi faoliyatini sohasini yanada takomillashtirish lozim. Hozirgi kunda G'aznachilik tomonidan faqat byudjetning xarajatlari qismi amalga oshirilayapti, xolos. Byudjet daromadlari qismini ham Moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan ijro etilsa byudjet mablag'larining yanada samarali shakllanishiga erishiladi degan fikrdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2012 y..
2. O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son. 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y. №52-I-son.
3. «Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 26.08.2004.
4. “Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabr 414-son Qarori (O'zR Vazirlar Mahkamasining 16.06.07 148-son qarori bilan tasdiqlangan yangi tahriri).
5. “Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident Qarori. PQ-594-son, 28.02.2007 y..
6. “O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi Prezident qarori. PQ-2270-son. 04.12.2014.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim iqtisodiy yakunlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish” nomli ma'ruzasi. 2013 yil 18 yanvar.
8. Prezident I.A.Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma'ruzasi. 2010 yil 29 yanvar.
9. Prezident I.A. Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'lallangan iqtisodiy dasturlarning eng

muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi" nomli ma'ruzasi. "Xalq so'zi" 2009 yil 14 fevral

10.Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: «O'zbekiston», 1995. -257 b.

11.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bqsag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston. 1997.-252 b.

12.Karimov I. A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida.T., O'zbekiston. 2005. -526b.

13.Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish - barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. –T.: O'zbekiston, 2007. – 320 b.

14. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustivorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. Xalq so'zi. 2008 yil 9 fevral

15.Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. –T.: O'zbekiston, 2008. T.16. – 365 b.

16.Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch". –T.: "O'zbekitson". 2008.

17.Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009 y.

18.Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.

19.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Xodiyev va boshq. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.

20.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz

farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma’ruzalarini o’rganish bo’yicha O’quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 340 bet.

21.Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o’zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo’l ochib berish — ustuvor vazifamizdir. T.: O’zbekiston. 2015. 32b.

22.Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. O’quv qo’llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008 yil.

23.Vaxobov A.V., Srojiddinova Z.X. O’zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti: O’quv qo’llanma. - T.: “Moliya-iqtisod”, 2002

24.Vaxobov A.V., Srojiddinova Z.X. O’zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti: O’quv qo’llanma. - T.: “Moliya-iqtisod”, 2002

25.Vahobov A., Qosimova G., Jamolov X. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi: O’quv qo’llanma. - T.: Iqtisod-moliya. 2005.

26.Вахабов А.В., Срожиддинова З.Х. Государственный бюджет: Учебник. Т. "ИҚТИСОД-МОЛИЯ", 2006

27.Вахабов А.В., Жамолов Х.Н. Согласование межбюджетных отношений: Ўқув қўлланма. Т.: “Молия-иқтисод”, 2003

28.Дробозина Л.А..Фынансы, денежное обращение и кредит. Москва.: 1997, 121 стр.

29.Malikov T.S., Haydarov N.H. Byudjet. O’quv qo’llanma. . T.: “Iqtisod-moliya”, 2008 yil.

30.Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat byudjeti. O’quv qo’llanma / Toshkent Moliya instituti. – T.: “IQTISOD–MOLIYA”, 2007 yil.

31.Malikov T.S., Haydarov N.H. Byudjet daromadlari va xarajatlari. O’quv qo’llanma. . T.: “Iqtisod-moliya”, 2007 yil

32.N.Haydarov. Davlat moliyasini boshqarish. T. “Akademiya”, 2005.

33.T.S.Malikov, N.H.Xaydarov “Moliya: umumdavlat moliyasi” T: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009 yil

- 34.Qosimova G.A. Ijtimoiy-madaniy sohalarni rivojlantirishda byudjet siyosati .
- T.: Toshkent moliya instituti, 2004. - 152s
- 35.Jo'raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari
/ - B.m.: T., 2004. - 240 b.
- 36.Qosimova G. G'aznachilik faoliyatini tashkil etish. O'quv qo'llanma. - T.:
Iqtisod-moliya. 2005.
- 37.Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. - T.:
"IQTISOD-MOLIYa". 2008.
- 38.Фатхудинов Р.А. Инновационный менеджмент. Учебник Москва.: ЗАО
«бизнес школа Интел-Синтез». 2000. С. 612.
- 39.Фатхудинов Р.А.Производственный менеджмент. Учебник Москва.
2002.Из-во «Дашков и К»
- 40.Швандер В.А. Горфинкеля В.Я. Инновационный менеджмент. Учебник
Москва.: ВЗФЕИ. Вузовский учебник. 2006. С. 382
- 41.Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetalari ijrosining buxgalteriya hisobi.
USAID/ZdravPlyus, Toshkent. 2004
- 42.www.minfin.ru (Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi)
- 43.www.mf.uz (O'zR Moliya vazirligi)
- 44.www.gov.uz (O'zR hukumati portali)
- 45.www.bfa.uz (O'zR Bank-moliya akademiyasi)